



TURKIY “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONIDAGI TOPONIMLAR

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.041>

Madaminova Zebijahonbegim Xurshidjon qizi

Andijon davlat universiteti magistranti,

tel: (91) 169-74-57,

e-mail: khurmad@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada XV asr mumtoz o‘zbek adabiyotiga mansub turkiy (Durbekka nisbat beriluvchi) “Yusuf va Zulayho” dostonida uchraydigan toponimlar tizimli ravishda o‘rganildi. Jumladan, unda toponimlarning poetik funksiyasi, tarixiy-geografik manbalari va badiiy matn tuzilishidagi ahamiyati tahlil qilindi. Doston matnida uchraydigan real va mifologik geografik nomlarning syujet rivoji, obrazlar xarakteri va muallif dunyoqarashini ifodalashdagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari mumtoz adabiyotda toponimlar poetikasi masalasiga yangi ilmiy xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: Yusuf va Zulayho, toponim, geografik nomlar, poetika, semantika, mumtoz adabiyot.

Аннотация. В данной статье систематически изучаются топонимы, встречающиеся в тюркской эпической поэме «Юсуф и Зулайхо» (приписываемой Дурбеку), относящейся к классической узбекской литературе XV века. В частности, анализируется поэтическая функция топонимов, их историко-географические источники и значение в структуре литературного текста. Раскрывается значение реальных и мифологических географических названий, встречающихся в тексте эпоса, в развитии сюжета, характере образов и мировоззрении автора. Результаты исследования дают новые научные выводы по вопросу поэтики топонимов в классической литературе.

Ключевые слова: Юсуф и Зулайхо, топоним, географические названия, поэтика, семантика, классическая литература.

Abstract. This article systematically studies the toponyms found in the Turkic epic poem “Yusuf and Zulayho” (attributed to Durbek), belonging to the 15th century classical Uzbek literature. In particular, it analyzes the poetic function of toponyms, their historical and geographical sources, and their significance in the structure of the literary text. The significance of real and mythological geographical names found in the text of the epic in the development of the plot, the character of the images, and the author's worldview is revealed.

The results of the study provide new scientific conclusions on the issue of the poetics of toponyms in classical literature.

Keywords: Yusuf and Zulayho, the toponym, geographical names, poetics, the semantics, classical literature.

Kirish. Mumtoz o‘zbek adabiyoti namunalarida toponimlar badiiy matnning muhim semantik va struktur elementlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, diniy-epik syujetga asoslangan dostonlarda geografik toponimlar faqat voqea sodir bo‘ladigan makonni ko‘rsatish bilangina cheklanmay, balki muallifning estetik didi, tarixiy va mafkuraviy qarashlarini ham ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, turkiy “Yusuf va Zulayho” dostoni toponimik qatlamni o‘rganish uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi [1].

Doston Qur’oni Karimdagi Yusuf qissasi asosida yaratilgan bo‘lib, unda Sharq adabiy an‘analariga xos real tarixiy, geografik va badiiy-mifologik makon uyg‘unlashgan [2]. Unda Misr, Kan’on, Bayt ul-Muqaddas kabi toponimlar bilan bir qatorda, ramziy va shartli makonlarni anglatuvchi toponimlar ham uchraydi [3]. Aynan mana shu holat toponimlarni faqat lingvistik birlik emas, balki badiiy-estetik kategoriya sifatida tahlil qilishni taqozo etadi [1].

Mazkur tadqiqotning maqsadi turkiy “Yusuf va Zulayho” dostoni matnida uchraydigan toponimlarni aniqlash, ularni semantik, funksional va poetik jihatdan tasniflash hamda doston matnida toponimlar qanday badiiy yuklama bajarishini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. “Yusuf va Zulayho” syujeti Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan va ko‘p marotaba badiiy qayta ishlangan mavzulardan biri bo‘lib, mazkur yo‘nalishda yaratilgan asarlar asosan diniy-axloqiy, ishqiy va falsafiy jihatdan o‘rganilgan. Turkiy “Yusuf va Zulayho” dostoni ham adabiyotshunoslikda asosan syujet manbalari, obrazlar tizimi va axloqiy g‘oyalar nuqtai nazaridan tadqiq etilgan [2].

O‘zbek adabiyotshunosligida turkiy “Yusuf va Zulayho” haqidagi ilmiy mulohazalar mumtoz adabiyot tarixiga bag‘ishlangan ishlarda uchraydi. Xususan, H.Ismoilov [4], B.Karimov [5], A.Qayumov [6], F. Sulaymonova [7], J.Lapasov va E.Fozilov [8], N.Babadjanova [9], R.Alibekova [10] kabi olimlarning tadqiqotlarida doston epik janr talablari, obrazlarning diniy-ma’rifiy mohiyati va an’anaviy syujetga munosabati doirasida tahlil qilingan. Biroq ushbu ishlarda makon masalasi, xususan, toponimlarning badiiy funksiyasi alohida ilmiy muammo sifatida qo‘yilmagan [1].

So‘nggi yillarda adabiy onomastika mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, badiiy matndagi atoqli otlar poetikasi masalasiga e’tibor kuchaydi. A. V.Superanskaya [11-12], V.A.Nikonov [13-14], G.V.Xolodnov [15]larning nazariy ishlari badiiy toponimlarni faqat nominativ birlik emas, balki semantik va ramziy yuklamaga ega poetik unsur sifatida talqin qilish imkonini berdi. Ushbu nazariy qarashlar turkiy “Yusuf va Zulayho” dostonini qayta o‘rganish asnosida yangicha talqin etish uchun muhim metodologik asos yaratdi.

Sharq adabiyotshunosligida makon va zamon M.Baxtin konsepsiyasi [16-17] asosida izohlanib, epik asarlarda makon qahramonning ma'naviy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida qaralgan. Biroq, turkiy "Yusuf va Zulayho" dostoni misolida gidronim, landshaft va shahar makonlari o'rtasidagi ichki mantiqiy bog'liqlik hozirgacha kompleks tarzda o'rganilmagan.

Shu bois, mazkur maqola avvalgi ishlardan farqli ravishda, turkiy "Yusuf va Zulayho" dostonidagi toponimlarni adabiy onomastika, xronotop va madaniy-geografik yondashuvlar asosida tahlil qilib, ushbu yo'nalishda mavjud bo'lgan ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot adabiyotshunoslik va onomastika kesishgan nazariy-metodologik maydonda olib borildi. Metodologik asos sifatida badiiy matnda toponimlarning poetik-funksional tabiatini ochishda adabiy onomastika nazariyasi; toponimlarning matn tarkibidagi o'rni, takrorlanish chastotasi va semantik qatlamlarini aniqlash maqsadida struktur-semantik yondashuv; makon va syujet harakati o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish uchun narratologik metod; geografik nomlarning tarixiy va madaniy o'ziga xosligini yoritish uchun madaniy-geografik yondashuv, turkiy "Yusuf va Zulayho" dostoni toponimlarini Qur'oni Karim matni hamda dostonning boshqa variantlari bilan qiyoslash asosida talqin etish uchun intertekstual tahlil kabi konseptual yondashuvlarga tayanamiz.

Metodologik jihatdan tadqiqot G.V. Xolodov, V.A. Nikonov, A.V. Superanskaya, M. Baxtin kabi onomastik olimlarining umumiy qarashlariga [11-17], shuningdek, o'zbek adabiyotshunosligida shakllangan mumtoz matn tahlili an'alariga asoslanadi [18].

Natijalar. Dostondagi toponimlarning umumiy semantik va struktur tavsifiga e'tibor qaratilsa, matnshunoslik tahlili natijalariga ko'ra, turkiy "Yusuf va Zulayho" dostonida bevosita va bilvosita shaklda qo'llangan toponimlar umumiy poetik leksikaning muhim qatlamini tashkil etadi. Dostonda real geografik nomlar son jihatidan ko'p bo'lmasa-da, ularning semantik vazni anchagina salmoqlidir. Bu holat mumtoz epik asarlarga xos bo'lib, makonning miqdoriy emas, balki mazmuniy salmog'i ustuvor qo'yilganini anglatadi.

Asarda toponimlar struktur jihatdan ikki asosiy: aniq nom bilan berilgan makonlar (Misr, Kan'on, Nil); kontekst orqali toponimik mazmun kasb etgan umumiy makon birliklari (zindon, sahro, saroy) ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi guruhga mansub birliklar onomastik jihatdan to'liq toponim bo'lmasa-da, badiiy matn ichida geografik makon vazifasini bajaradi va shu sababli ularni funksional toponimlar sifatida talqin etilishi mumkin.

Dostondagi real tarixiy toponimlarning semantik qatlamlarini tahlil etishni boshlasak, Misr toponimi dostonida markaziy semantik o'q vazifasini bajarishini anglash qiyin emas. Mazkur toponim yordamida Yusuf taqdirining burilish nuqtasi tarzida tasvirlangan bo'lib, turkiy dostonida Misr qullikdan hukmronlikka olib boruvchi makon sifatida tasvirlanadi. Turkiy doston muallifi Misr obrazini Qur'on manbalariga tayangan holda ifodalab, syujetni

o‘zining mustaqil badiiy tafakkur mahsuli bilan boyitadi. Natijada, bu asarda Misr nafaqat siyosiy markaz, balki inson irodasi va ilohiy taqdir kesishadigan makonga aylandi.

Boshqa Yusufnomalardagi kabi, asarning deyarli barcha o‘rinlarida muallif Misrni moddiy to‘kinlik, hasham va boylik, tashqi joziba ramzi sifatida tasvirlashga urinadi. Asar muallifi o‘zining yuksak badiiy mahorati yordamida mazkur toponimi Zulayho obrazi bilan uzviy aloqada talqin qilishga erishadiki, natijada Misr ishqiy-falsafiy sinov makoniga aylanadi.

Kan‘on toponimi dostonida retrospektiv xarakterga ega. U Yusufning bolaligi, otasi Yo‘qub (Ya‘qub) bilan bog‘liq xotiralar, yo‘qotilgan osoyishtalik ramzi sifatida ishlatiladi. Kan‘on - ilohiy tanlov boshlanadigan, ammo vaqtincha tark etiladigan makon sifatida poetiklashtiriladi.

Kan‘on va Misr qarama-qarshiligi Sharq adabiyotiga xos “vatan-g‘urbat” oppozitsiyasini yuzaga chiqaradi. Bu qarama-qarshilik faqat geografik emas, balki ma‘naviy-axloqiy xarakterga ega.

Durbekka nisbat beriluvchi “Yusuf va Zulayho” dostonida gidronimlar son jihatidan cheklangan bo‘lsa-da, ularning semantik va poetik yuklamasi nihoyatda muhimdir. Asarda markaziy gidronim sifatida Nil daryosi tilga olinadi. Nil bu yerda tasodifiy geografik detal emas, balki qadimgi Sharq tafakkurida shakllangan “suv-hayot-baraka-hokimiyat” konseptsiyasi bilan uzviy bog‘langan ramziy birlikdir.

Nilning doston kontekstida qo‘llanishi Qur‘oniy rivoyat va tarixiy haqiqat bilan uyg‘unlashgan. Misr sivilizatsiyasining iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bevosita Nil bilan bog‘liq ekanini hisobga olsak, Durbek Nilni tilga olish orqali Yusufning davlat boshqaruvidagi donoligini va ilohiy tanlanganligini bilvosita asoslaydi. Nil atrofidagi farovonlik tasviri Yusuf tomonidan amalga oshirilgan adolatli siyosatning tabiiy natijasi sifatida anglashiladi.

Adabiy onomastika nuqtayi nazaridan Nil gidronimi referensial-realistik va ramziy-falsafiy funksiyalarni bir vaqtda bajaradi. Referensial jihatdan u voqealarning real geografik hududda kechayotganini tasdiqlasa, ramziy jihatdan hayot davomiyligi va ilohiy marhamat belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, gidronim badiiy matnda semantik markazlardan biriga aylanadi.

Doston tarkibida sahro va cho‘l kabi landshaft birliklari aniq nom bilan berilgan toponimlar qatoriga kirmasa-da, badiiy matn ichida toponimik mazmun kasb etadi. Ushbu makonlar Sharq epik an‘anasida muhim poetik model bo‘lib, insonning yolg‘izligi, sinov yo‘li va taqdir bilan yuzma-yuz kelish holatini ifodalaydi.

Durbek sahro makonini Yusufning hayot yo‘lida o‘tish bosqichlaridan biri sifatida talqin qiladi. Sahro - ijtimoiy tuzilmalardan xoli, tabiat va inson o‘rtasidagi bevosita munosabat hukmron bo‘lgan makondir. Shu bois, sahro Yusuf obrazining sabr, matonat va iymon bilan bog‘liq sifatlarini ochishda qulay poetik fondir.

Landshaft toponimlarining yana bir muhim jihati shundaki, ular makonning vaqt bilan uyg‘unlashuvini ta‘minlaydi. Sahroda kechgan voqealar uzoq davom etuvchi sinov va kutish

holatini ifodalab, epik vaqtni cho‘zadi. Bu esa qahramonning ruhiy pishib yetilishini badiiy jihatdan asoslaydi.

Xronotop nazariyasi doirasida qaranganda, gidronim va landshaft toponimlar dostonning makon-vaqt koordinatalarini belgilovchi muhim unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Nil - barqarorlik va davomiylikni anglatuvchi makon bo‘lsa, sahro va cho‘l - o‘zgarish va sinov makonidir.

Bu qarama-qarshilik Yusuf obrazining rivojlanish dinamikasini ta‘minlaydi. Suv bilan bog‘liq makonlar hayotiylik va tiklanish g‘oyasini ifodalasa, quruq landshaftlar ruhiy chiniqish va ma‘naviy poklanish bosqichlarini anglatadi. Natijada, gidronim va landshaft toponimlar dostonning ichki falsafiy strukturasini shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biriga aylanadi.

Zindon va saroy dostonning eng muhim badiiy makonlari hisoblanadi. Zindon - Yusufning jismoniy cheklanishi, ammo ruhiy yuksalish makoni sifatida talqin etiladi. Saroy esa tashqi ulug‘vorlik ortidagi ma‘naviy inqirozni ifodalaydi.

Bu ikki makon o‘rtasidagi qarama-qarshilik orqali muallif axloqiy komillik g‘oyasini ilgari suradi: haqiqiy ozodlik makonga emas, iymonga bog‘liq.

Toponimlar masalasi zamonaviy adabiyotshunoslikda faqat yordamchi leksik qatlam sifatida emas, balki mustaqil poetik kategoriya sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, epik asarlarda makon tushunchasi syujet va obrazlar tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, badiiy makon va zamon nazariyasi doirasida talqin etiladi.

Turkiy “Yusuf va Zulayho” dostoni toponimlari ushbu nazariy qarashlarni to‘liq tasdiqlaydi. Dostonda makon statik emas, balki dinamik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Yusufning Kan‘ondan Misrga, zindondan saroyga harakati makon almashinuvi orqali ma‘naviy yuksalishni ifodalaydi.

Onomastik nuqtayi nazardan, turkiy doston muallifi toponimlardan joyni nomlash, tarixiy-realistik fon yaratish, axloqiy-falsafiy ma‘no yuklash kabi uch xil funksiyada foydalanadi. Ayniqsa, axloqiy-falsafiy ma‘no yuklash (ramziy) funksiyasi doston ustuvor bo‘lib, toponimlar muayyan g‘oyaviy motivlarni ifodalovchi belgilar tizimiga aylanadi. Misr - dunyoviy qudrat motivi, Kan‘on - ilohiy tanlov va vatan motivi, zindon - sabr va iymon motivi sifatida shakllanadi.

Bu holat turkiy doston muallifi ijodini sof rivoyatchilikdan yuqori bosqichga ko‘tarib, asarni chuqur falsafiy-epik asar darajasiga olib chiqadi. Shu sababli, dostondagi toponimik tizimni e‘tiborsiz qoldirib, asarni to‘liq talqin etish mumkin emas.

Quyidagi jadvalda doston tarkibida uchraydigan asosiy toponimlarning turi va badiiy-funksional vazifasi qiyoslangan.

Jadval

Toponimlarning funksional-semantik qiyoshlash

toponim nomi	toponim turi	adabiy vazifasi	semantik vazifasi
Misr	real-tarixiy	syujet markazi, davlat va qudrat	dunyo, saltanat, sinov

		makoni	
Kan'on	real-tarixiy	boshlanish va xotira makoni	vatan, poklik, hijron
Nil	gidronim	tarixiy-realistik fon	baraka, farovonlik
saroy	shartli-ramziy	fitna va nafs makoni	zohiriy ulug'vorlik
zindon	shartli-ramziy	ruhiy poklanish bosqichi	sabr, iymon, komillik
sahro / cho'l	landshaft	sinov va yolg'izlik muhiti	taqdir yo'li

Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, toponimlarga doston poetikasida tasodifiy tarzda emas, balki ma’lum g‘oyaviy ehtiyoj asosida murojaat qilingan.

Dostonning toponimik tizimini umumiy epik strukturasi bilan bog‘lab tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, turkiy “Yusuf va Zulayho” dostoni makonlar iyerarxiyasiga asoslangan holda qurilgan. Har bir makon Yusuf hayot yo‘lining ma’lum bosqichiga mos keladi va shu bosqichga xos axloqiy-falsafiy yuklamani tashiydi.

Misrdan Kan'onga bo‘lgan ichki ruhiy harakat, ya’ni vatanga sog‘inch motivi, dostonning kulminatsion-emotsional cho‘qqilaridan birini tashkil etadi. Bu holat mumtoz Sharq adabiyotida makonning nafaqat tashqi, balki ichki-ruhiy aks etishi sifatida ham qarash zarurligini anglatadi.

Turkiy “Yusuf va Zulayho” muallifi toponimlar yordamida ilohiy rivoyat va real tarixiy hodisani badiiy sintez qiladi. Natijada, asarda geografik nomlar tarixiy xotira va diniy e’tiqod tutashgan nuqtaga aylanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari turkiy “Yusuf va Zulayho” dostoni toponimik jihatdan murakkab va serqatlam badiiy tizim ekanini ko‘rsatdi. Dostondagi toponimlar epik voqealar rivojini mantiqan birlashtirishga, obrazlarning ruhiy va axloqiy kamolotini bosqichma-bosqich aks ettirishga hamda tarixiy, diniy va falsafiy mazmunni o‘zaro mujassamlashtirishga xizmat qilgan ekan.

Shu bois, toponimlar poetikasini chuqur o‘rganish mumtoz o‘zbek adabiyotshunosligida muhim ilmiy yo‘nalish bo‘lib qoladi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqot natijalari turkiy “Yusuf va Zulayho” dostonini lingvopoetik, madaniy-geografik va g‘oyaviy-estetik nuqtayi nazardan o‘rganishda dastlabki nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qalandarova D.A., Jorayev O.Sh. “Yusuf va zulayho” dostonining poetik talqini. Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the International scientific conference. - Berlin: 2022. ISSUE 12, -PP. 129.

2. Abdullayeva D.Z. Alisher Navoiy ijodida “Yusuf va Zulayho” mavzusi. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari. Halqaro konferensiya materiallari, 2023. V. 4, №1, -PP. 134.
3. Durbek. Yusuf va Zulayho. - Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959. - 160 b.
4. Ismoilov, H. (1995). O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan.
5. Karimov, N. (2008). Mumtoz adabiyot poetikasi. Toshkent: Akademi-nashr.
6. Qayumov, A. (1983). O‘zbek adabiyoti tarixi masalalari. Toshkent: Fan.
7. Сулаймонова Ф. “Юсуф ва Зулайхо” достонининг Алишер Навоийга нисбат берилган Париж қўлёзмаси ҳақида. Адабий мерос, 1973-й. №3. 152-157-бетлар.
8. Фозилов Э., Лапасов Ж. “Юсуфу Зулайхо” достони ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1974-й. №1, 24-28-бетлар.
9. Babadjanova N. Yusuf va Zulayho dostoni syujetining genezisi va badiiy evolyutsiyasi. - Toshkent: Fan, 2024, - 236 b.
10. Alibekova R. “Yusuf va Zulayho” dostonlarida obraz yaratish uslubi. - Toshkent: Navro‘z, 2016. - 152 b.
11. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. Изд. 2-е, испр. - М.: Издательство ЛКИ, 2007. - С. 368.
12. Суперанская А.В. Имена собственные в художественном тексте. Москва: Наука, 1973.
13. Никонов В.А. Введение в топонимику. Москва: Наука, 1973. –С. 179.
14. Никонов В.А. Географические имена и их изучение. Москва: Наука, 1974. – С. 278.
15. Холодов Г.В. Поэтика восточного эпоса. Москва: Наука, 1986
16. Бахтин М. Время и пространство в романе. Вопросы литературы, 1974, № 3, -С.133-179.
17. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики: Исследования разных лет. - М.: Худож. лит., 1975. –С. 502.
18. Quronov D.H. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018, -B. 256.